

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TULIYEV BEXRUZ ALIMQULOVICH

**TEMIR(III) VA MIS(II) IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK
ANIQLASH USLUBLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 - Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tuliyev Bexruz Alimqulovich

Temir(III) va mis(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab
chiqish..... 3

Тулиев Бехруз Алимкулович

Разработка методов спектрофотометрического определения ионов
железа(III) и меди(II)..... 21

Tuliyev Bekhruz Alimqulovich

Development of spectrophotometric methods for the determination of
iron(III) and copper(II) ions..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TULIYEV BEXRUZ ALIMQULOVICH

**TEMIR(III) VA MIS(II) IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK
ANIQLASH USLUBLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 - Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K976 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.ik-kimyo.nuuz.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turabov Nurmuxammad Turabovich
kimyo fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmonov Ergashboy
kimyo fanlari doktori, professor

Ashirov Mansur Allanazarovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «21» 07 soat «12⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-07-88, faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.) Tel: (+99871) 246-07-88, 277-12-24; faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «10» 07 kuni tarqatildi.

(2026 - yil «08» 07 dagi 16 -raqamli reestr bayonnomasi).



T.S. Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

U.O'. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., dotsent

Z.A. Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilm-fan, texnika, tibbiyot, atrof-muhit, oziq-ovqat va ishlab chiqarish mahsulotlarining turli xil sanoat chiqindilari hamda og‘ir va zaharli metall ionlari bilan ifloslanishi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchli ekologik muammolarni keltirib chiqarayotganligi sababli, ularni kelib chiqishini oldini olish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sanoatda og‘ir va zaharli metall ionlaridan oqilona foydalanish hamda ularning mikromiqdorini aniqlashda ekspress, arzon va selektiv bo‘lgan yangi uslublarni ishlab chiqish hamda nazorat qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan dasturiy chora-tadbirlar asosida tabiiy suvlar, rudalar, sanoat chiqindi mahsulotlari tarkibidan Fe(III) va Cu(II) ionlarini miqdoriy aniqlash uslublarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi olimlari tomonidan og‘ir va zaharli metall ionlarini spektrofotometrik aniqlash usuli yordamida tabiiy va oqova suvlar tarkibidan aniqlash va sanoat chiqindilaridan ajratib olish, ularning tarkibini aniqlashning tanlab ta‘sir etuvchan va yuqori sezgir usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashda yangi kompleks hosil qiluvchi funksional analitik guruhlari saqlagan organik analitik reagentlarni qo‘llash orqali yuqori sezgirlikni, selektivlikni va ekspresslikni oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatida yangidan-yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo‘nalishida ma‘lum natijalarga erishildi, jumladan mahalliy bozorni import o‘rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta‘minlash sohasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Ta‘kidlash joizki, Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish orqali sanoat ob‘yektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹ «Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirishga» qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda temir va mis kabi og‘ir va zaharli metall ionlarining kimyo, aviatsiya, tibbiyot, xalq xo‘jaligi sanoatlarida keng qo‘llanilganligi sababli, ularni aniqlashning zamonaviy, ishonchli, ekspress va iqtisodiy jihatdan arzon usullarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni va 2019-yil 3-apreldagi «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4265-sonli Qarori ijrosini ta‘minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” doirasiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Turli xil sun’iy aralashmalar, sanoat qotishmalarining standart namunalari, tabiiy va oqova suvlar, oziq-ovqat hamda biologik obyektlarda Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlash bilan dunyo miqyosidagi ko‘plab Xorijiy olimlar shug‘ullangan va mazkur yo‘nalish hozirgi kunda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ushbu og‘ir metall ionlarining mikro-miqdorlarini aniqlashning fizik–kimyoviy usullari murakkab apparaturaviy jihozlanishi va yuqori iqtisodiy xarajatlari yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, atrof-muhit obyektlari tarkibidagi og‘ir metallarning ionlarini aniqlashning sezgirligi yuqori, selektiv, sodda va iqtisodiy jihatdan arzon bo‘lgan yangi spektrofotometrik usullarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mazkur yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan va eng ko‘p iqtibos keltiriladigan olimlarning ishlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Jumladan, Xorijiy olimlar: Mustafa Soylak (Turkiya), Ali Shokrollahi, Mehdi Ghaedi, Alireza Afkhami, Tayebeh Madrakian (Eron), Robert G. Parr (AQSH), Kenichi Fukui (Yaponiya), Prisco Prete (Italiya), Christoph Janiak (Germaniya), Mustafa Hamid Atiyah (Iroq) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan metall ionlarini spektrofotometrik aniqlashning nazariy va amaliy asoslari rivojlantirilgan.

MDH davlatlari olimlaridan Kerim A. Kuliyeu, Farman M. Chiragov, Ali Z. Zalov, N. A. Verdizade (Ozarbayjon), A. I. Busev, Y. Y. Lurie, B. N. Tarasevich, A.V. Bulatov (Rassiya Federatsiyasi) va boshqa olimlar ekstraksion-fotometrik hamda spektrofotometrik analiz usullarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar.

Mazkur olimlar qatoriga zamonaviy o‘zbek olimlari ham kiradi. Ayniqsa, Sh. T. Tolipov tomonidan Respublikada va Markaziy Osiyoda analitik kimyogarlarning ilmiy maktabiga asos solingan bo‘lib, uning ilmiy faoliyati optik va elektrokimyoviy tahlil usullarini, xususan fotometrik, spektrofotometrik, kompleksonometrik, inversion-voltamperometrik hamda amperometrik titrlash usullarini rivojlantirishga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishning rivojlanishi bevosita A.K. Jdanov, V.A.Xadeev, N.B.Babaev, T.K.Hamraqulov, A.M. Gevorgyan, R.H.Djiyanbaeva, E.L.Krukovskaya, K.Z.Rahmatullaev, L.V. Chaprasova, I.P. Shesterova, O.F. Fayzullaev, N.T. Turabov, X.X.Turaev, Z.A. Smanova, A.M. Nasimov, E.Abdurahmanov, Y.Sh. Eshmurzayev, N.H.Qutlimurotova va boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ammo yangi organik rea-gentlardan foydalanib Fe(III) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uchun ekologik va analitik tahlillarda tadqiqotlar, amaliyotda yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy–tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti “Analitik kimyo” kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Atrof-muhit obyektlaridan ayrim og‘ir va zaharli metallar ionlarining monitoring qilish va ularni mikro miqdorlarini aniqlashning yangi spektrofotometrik usullarini ishlab chiqish” (2020-2025 y.y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi yangi sintez qilingan azoreagent asosida Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashning yuqori sezgir va selektiv spektrofotometrik uslublarni yaratishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

naftalin asosidagi yangi 4-amino-5-gidroksi-6-(piridil-2-azo)-3-sulfonaftalin-1-sulfokislolaning mononatriyli tuzi (4AGPASS) reagentini sintez qilish va uning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

4AGPASS va uning metall ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining fizik-kimyoviy xossalari, spektral tavsiflari, haqiqiy molyar so'ndirish koeffisienti, komp-leks birikmalarning tarkibiy mollar nisbati va muvozanat konstantalarini aniqlash;

darajalangan grafikning to'g'ri chiziq tenglamasi va tekshirilayotgan analitik reaksiyalarning selektivligini turli xil ionlar ishtirokida eritmada va sun'iy binar, murakkab aralashmalar, standart sanoat qotishmalari va biologik obyektlar hamda real tabiiy obyektlar tarkibidan Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlash;

ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligi "kiritildi-topildi" usuli yordamida aniqlash, quyi aniqlanish chegarasini o'rnatish hamda olingan natijalarini metrologik baholash;

Fe(III) va Cu(II) ionlarini eritmada yangi azo reagent 4AGPASS bilan spektrofotometrik aniqlash uslublarini tavsiya qilish;

ishlab chiqilgan uslublarni laboratoriya sharoitlarida sinovdan o'tkazish va real obyektlar tarkibidan Fe(III) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlashning yangi uslublarini ishlab chiqish hamda turli murakkab obyektlar va materiallar analizining ratsional yechimlarini izlashda qo'llash.

Tadqiqotning obyekti sifatida turli xil tarkibli sun'iy aralashmalar sanoat qotishmalarining standart namunalari, tabiiy va oqova suvlar, oziq-ovqat va biologik obyektlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Fe(III) va Cu(II) ning yangi sintez qilingan 4AGPASS reagenti bilan kompleks hosil qilish reaksiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari sifatida fotometrik, spektrofotometrik (UV-vis), potensiometrik, IQ, Raman va YMR spektroskopiyasi hamda kvant-kimyoviy hisoblash usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangi selektiv 4AGPASS reagenti sintez qilindi va uning suyuqlanish temperaturasi ($t=392^{\circ}\text{C}$), molyar so'ndirish koeffisient ($\epsilon=3100$) va dissosilanish konstantasi ($K_{\text{diss.}}=8,9 \cdot 10^{-8}$ va $\text{pK} = 7,05$) aniqlangan;

Fe(III) va Cu(II) bilan kompleks hosil bo'lishning spektrofotometrik aniqlash sharoitlarini optimallashtirish qonuniyatlari kuchsiz kislotali (atsetatli bufer $\text{pH}=5,0$) va kuchli kislotali (universal bufer $\text{pH}=2,30$) muhitlarda, Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi mos ravishda 5,0-35,0 va 1,0-6,0 mkg oraliqlarida ekanligi; nur yutish maksimumlarining batoxrom siljishlari $\Delta\lambda=65$ nm va $\Delta\lambda=100$ nm ga tengligi aniqlangan;

analitik signallar va konsentratsiya o'rtasidagi bog'lanish regressiya tenglamalari Cu(II) uchun: $Y_i=0,0159+0,0452X_i$ ga, Fe(III) uchun: $Y_i=0,0180+0,0053X_i$ ga tengligi, Tolmachyovni grafik usuli bo'yicha $\epsilon_{\text{haq}}(\text{Cu})=14286 < \epsilon_{\text{haq}}(\text{Fe})=52631$ ga, Sendel bo'yicha sezgirligi Fe(III) uchun 0,0086 mkg/sm², Cu(II) uchun 0,0064 mkg/sm² ga tengligi isbotlangan;

usulning selektivligi va sezgirligini aniqlashning quyi chegaralari (LOD): Fe(III) – 0,0536 mkg/sm³ ga; Cu(II) – 0,226 mkg/sm³ ga teng. Miqdoriy aniqlash chegaralari (LOQ, 10 σ mezoni bo'yicha): Fe(III) – 0,107 mkg/sm³; Cu(II) – 0,451

mkg/sm³ ga teng ekanligi hisoblangan;

ishlab chiqilgan uslublarini sanoat qotishmalari, tabiiy va oqova suvlar, oziq-ovqat hamda biologik obyektlarda analiziga qo'llanilib nisbiy standart chetlanish (S_r) qiymatlari $Cu(II) \leq 0,035$ ga; $Fe(III) \leq 0,045$ ga tengligi, yuqori takrorlanuvchanligi va statistik ishonchliligi tasdiqlangan hamda student mezonlari bilan analitik va metrologik tavsiflarini yuqoriligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aniqlangan optimal sharoitlar asosida $Fe(III)$, $Cu(II)$ ionlarini binar va murakkab aralashmalar, sanoat namunalari, tabiiy suvlar, minerallar va boshqa atrof-muhit obyektlari tarkibidan 4AGPASS reagenti bilan aniqlashning iqtisodiy jihatdan arzon, tezkor, sezgir, selektiv uslubalari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan uslublarning optimal sharoitlari: muhitning kislotaligi va $Fe(III)$, $Cu(II)$ ionlari va 4AGPASS reagentining konsentratsiyasi, turli bufer aralashmalarining tarkibi, elektron yutilish spektrlari, mollar nisbatlari va boshqa fizik-kimyoviy tavsiflari aniqlangan;

$Fe(III)$ va $Cu(II)$ ionlarini 4AGPASS bilan atrof-muhit obyektlari tarkibidan ekologik xavfsiz selektiv spektrofotometrik aniqlash uslublari yaratilgan.

Olingan natijalarining ishonchliligi fotometriya, spektrofotometriya, potensiometriya, IQ, Raman va YMR spektroskopiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy uslublar hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar bilan isbotlangan. Xulosalar matematik statistika uslublari bilan qayta hisoblangan tajriba natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati $Fe(III)$ va $Cu(II)$ ionlarini atrof-muhit obyektlaridan aniqlashni ta'minlaydigan keng sohadagi pH va konsentratsiya oralig'i, haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsienti (ϵ), Sendel bo'yicha sezgirliigi, reaksiya kontrastligini tavsiflovchi $\Delta\lambda$ farqi, muvozanat va barqarorlik (β_k) konstantalari kabi metrologik tavsiflarini o'rnatilganligi yangi spektrofotometrik aniqlash uslublari taklif qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan yangi ekologik xavfsiz, selektiv spektrofotometrik uslublarini atrof-muhit obyektlaridan $Fe(III)$ va $Cu(II)$ ionlarini ruxsat etilgan miqdorgacha va undan ancha kichik bo'lgan konsentratsiyalarni individual eritmalaridan, sun'iy, binar, tabiiy suv, sanoat qotishmalari va murakkab aralashmalardan aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. $Fe(III)$ va $Cu(II)$ ionlarini 4AGPASS bilan spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalar asosida:

$Cu(II)$ ionlarini ishlab chiqilgan aniqlash uslubi bo'yicha olingan ma'lumotlardan xorijdagi yuqori impakt faktorli ilmiy jurnallardagi 6 ta maqolalarda analitik va metrologik tavsiflarni yaxshilash uchun foydalanilgan (Journal of Molecular Modeling, 2024, 30(11):376, Scopus, IF=2,5; Journal of Chemistry Letters, 2025, 6(3):157-165; 2025, 6(4):317-324; 2026, 7(1):41-53, Scopus, IF=2,5; Chemical Review and Letters, 2025, 8(5):955-966, Chemical Abstracts, Scopus, IF=5,2; Theoretical Chemistry Accounts, 2025, 144(1):7, IF=1,5 va boshqalar). Natijada yangi ishlab chiqilgan uslublarni solishtirish, analitik va metrologik tavsiflarini yaxshilash imkoni yaratilgan;

spektrofotometrik usuli yordamida $Fe(III)$ va $Cu(II)$ ionlarini aniqlash uslub-

lari “Maxam-Uzbekistan” MCHJ O‘zbekiston-Ispaniya qo‘shma korxonasi kimyoviy laboratoriyasiga joriy etilgan (“Maxam-Uzbekistan” MCHJ O‘zbekiston-Ispaniya qo‘shma korxonasi 2026-yil 26-martdagi № 26/03-14-son ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan uslublar 4AGPASS reagenti yordamida Fe(III) va Cu(II) ni oqova suvlar tarkibidan aniqlash imkonini bergan;

Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uslubi “Metal procesing technology” MCHJ korxonasi laboratoriyasini amaliyotiga oqova suv analizida qo‘llanilgan (“Metal procesing technology” MCHJ ning 2026-yil 17-apreldagi ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan uslublar Fe(III) va Cu(II) ionlarini mikromiqdorini aniqlashda tezkorlikni, aniqlikni, sezgirlikni va selektivlikni oshirish hamda analitik va metrologik tavsiflarini yaxshilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 6 ta Xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniq belgilangan. Ishning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlari yuzasidan xulosalar keltirilgan, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Temir (III) va mis (II) ionlarini optik va boshqa fizik-kimyoviy aniqlash usullari (adabiyotlar sharhi)**” deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan. Unda Fe(III) va Cu(II) ionlarini suvli muhitlarda turli xil reagentlar yordamida optik hamda fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlashga bag‘ishlangan xorijiy va respublika olimlarining ilmiy ishlari tahlil qilingan. Analitik kimyoda organik analitik reagentlardan foydalanish metall ionlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday reagentlar metall ionlari bilan o‘zaro ta’sirlashib barqaror rangli kompleks birikmalar hosil qilishi hamda yuqori sezgirlik va selektivlikni ta’minlashi bilan tavsiflanadi. Adabiyotlar tahlili natijasida Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashning mavjud usullari imkoniyatlari

baholanib, mazkur tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari va tadqiqot yo‘nalishini tanlash uchun ilmiy asos yaratildi.

Dissertatsiyaning **“Reagent sintezi va kompleks hosil bo‘lishining optimal sharoitlarini o‘rnatish, uning metallokomplekslarini spektrofotometrik tavsiflarini aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida standart va ishchi eritmalarini tayyorlash usullari bayon etilgan. Shuningdek, reagentning identifikatsiyasi o‘tkazilib, Fe(III) va Cu(II) ionlari bilan sifat reaksiyalari o‘rganilgan. Kompleks hosil bo‘lish reaksiyalarining optimal sharoitlari aniqlanib, ularning spektrofotometrik tavsiflari tanlangan hamda komplekslarning tarkibiy molyar nisbatlari aniqlangan. Bundan tashqari, reagent va uning Fe(III) hamda Cu(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining sezgirligi hamda ayrim fizik-kimyoviy konstantalari spektrofotometrik usulda baholangan.

Reagentning tuzilishi elektronkvant-kimyoviy hisoblashlar, IQ, Raman va PMR spektroskopiya usullari yordamida tasdiqlangan. Piridin hosilalarini tozalash uchun bir martalik qayta kristallanish yetarli bo‘lishi aniqlangan. Spektrofotometrik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ushbu ishda organik analitik reagent sifatida qo‘llanilgan piridilazo birikmasi 505-525 nm oraliqda bitta maksimal yutilish chizig‘iga ega ekanligi hosil bo‘lgan moddaning tozaligi hamda tautameriya kuzatilmagani aniqlangan. Reagentning eritmada holatini aniqlash maqsadida uning yutilish spektrining turli pH muhitlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. Natijalar reagentning pH 2,0-3,0 oralig‘ida 500-505 nm, pH 5,0-7,0 oralig‘ida 515-525 nm, pH 7,0-10,0 oralig‘ida 515-525 nm hamda pH 10,0-13,0 oralig‘ida 510-525 nm sohalarida maksimal yutilishga ega ekanligini ko‘rsatdi.


Hisoblash natijalariga ko‘ra elektron bulutning zichligi -N=N- va -OH guruhlarida katta ekanligi, hamda reaksiyada ayni shu guruhlar qatnashishi nazariy tomonlama hisoblab topildi. Olingan natijalar asosida metall va reagentning doimiy konsentratsiyasida kompleks eritmalarining optik zichligining eritma to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi aniqlandi. Komplekslarning maksimal optik zichligi Fe(III)-4AGPASS kompleksi uchun atsetatli bufer pH 5,0-5,2 oralig‘ida, Cu(II)-4AGPASS kompleksi uchun esa universal bufer pH 2,3-2,4 oralig‘ida kuzatildi.

Metall ionlarining kompleksga to‘liq bog‘lanishini ta‘minlash maqsadida reagentning optimal miqdorini aniqlash uchun metall ionlari konsentratsiyasi o‘zgarmas holda saqlanib, reagent miqdori bosqichma-bosqich oshirilib bir qator tajribalar o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 50,0 mkg Fe(III) va 10,0 mkg Cu(II) ionlarini kompleksga to‘liq o‘tkazish uchun 0,05 % li (4AGPASS) eritmasidan mos ravishda 1,0 ml va 1,2 sm³ miqdor yetarli ekanligi aniqlandi. Keyingi tajribalarda reagentning optimal miqdori sifatida aniqlangan ushbu hajmlardan foydalanildi.


Fe(III) va Cu(II) ionlari 4AGPASS bilan komplekslarining yuqori sezgirligi, kontrastligi hamda vaqtga nisbatan barqarorligi ularni spektrofotometrik aniqlashda qo‘llash imkonini berdi. Optimal sharoitlarda metall ionlarining 4AGPASS bilan reaksiyalari Buger-Lambert-Ber qonuniga bo‘ysunishi aniqlandi. Kompleks eritmalarining optik zichligi bilan Fe(III) va Cu(II) ionlari konsentratsiyasi o‘rtasida to‘g‘ri chiziqli bog‘lanish kuzatilib, u 25,0 sm³ hajmli eritmada Fe(III) uchun 5,0-35,0 mkg/sm³ hamda Cu(II) uchun 1,0-6,0 mkg/sm³ konsentratsiyalar oralig‘ida saqlanishi aniqlandi (1 va 2-rasmlar).

Temir(III) va mis(II) komplekslarining 4AGPASS reagenti bilan tarkibiy

mollar nisbati muvozanatlar siljishi, spektrofotometrik titrlash, izomolyar seriyalar va Asmusning to'g'ri chizikli metodlari yordamida aniqlandi. Eritmalarning umumiy hajmi doimiy holda ($V_{Me} + V_{HR} = \text{const}$) saqlanib, metall tuzlari eritmalari va reagentning izomolyar miqdorlari antibat nisbatlarda aralashtirilib, reaksiyaga kirishuvchi komponentlarning nisbatlari aniqlandi. Bunda eritmaning umumiy hajmida ikkita komponentning gramm-molining umumiy miqdori doimo o'zgarmas holda saqlanib turdi (3-4 rasmlar).




1-rasm. 4AGPASS bilan Fe(III) komplekslarining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunish grafiği




2-rasm. 4AGPASS bilan Cu(II) komplekslarining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunish grafiği

Olingan natijalar (3-4-rasmlar) 4AGPASS reagenti bilan Fe(III):(4AGPASS) = 1:3 va Cu(II):(4AGPASS) = 1:2 komplekslarining tarkibi turli mustaqil usullar bilan tekshirilganda ham bir xil nisbatga teng ekanligini ko'rsatdi.



3-rasm. Muvozanatlar siljishi usuli bilan Cu(II) kompleksining tarkibiy mollar nisbatini aniqlash grafiği



4-rasm. Izomolyar seriyalar usuli yordamida 4AGPASS bilan Fe(III) kompleksining tarkibiy mollar nisbatini aniqlash grafiği

Kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlarida rangli reaksiyalarning asosiy spektrofotometrik tavsiflari, jumladan reagent va komplekslarning maksimal yutilish spektrlari, reaksiyaning kontrastligini tavsiflovchi $\Delta\lambda$ farqi hamda boshqa ko'rsatkichlar aniqlandi (1-jadval).

Olingan spektrofotometrik ma'lumotlar asosida 4AGPASS reagentining nur yutilishining molyar so'ndirish koeffitsienti (ϵ) va dissotsiatsiya konstantasi (K_{diss}) Komar usuli yordamida aniqlandi. Hisoblash natijalariga ko'ra $\epsilon_{HR} = 3100$ hamda $K_{\text{diss}} = 8,9 \cdot 10^{-8}$ ($pK = 7,05$) qiymatlariga tengligi aniqlanib, barcha tajribalarda (4AGPASS) reagentining konsentratsiyasi $1,081 \cdot 10^{-3} \text{ mol/dm}^3$ ni tashkil etdi. Bu reagentning protolitik xossalarini tavsiflaydi. Ushbu qiymatlar reagent molekulasining naftol yadrosidagi -OH guruhidan protonning ajralishi natijasida

hosil bo'ladigan dissotsiatsiya jarayoni bilan izohlanadi. Ma'lumki, organik analitik reagentlarning protolitik xossalari ularning metall ionlari bilan kompleks hosil qilish qobiliyatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

A.I. Busev adabiyotida ta'kidlanganidek, analitik reagentlarning spektral xossalari, nurni molyar so'ndirish koeffitsienti va dissotsiyanish konstantalarining barqaror qiymatlari reagentning yuqori tozaligi hamda spektral bir jinsligini ko'rsatadi. Shu sababli olingan ϵ va pK qiymatlari 4AGPASS reagentning yetarli darajada tozalanganligini hamda spektrofotometrik analiz uchun samarali xromogen reagent ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur reagentning dissotsiatsiyalangan shakli metall ionlari bilan barqaror rangli kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, bu esa Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashda uning analitik imkoniyatlarini kengaytiradi. 4AGPASS reagenti bilan temir(III) va mis(II) ionlarining kompleks hosil qilish reaksiyalarida haqiqiy nurni molyar so'ndirish koeffitsienti ($\epsilon_{\text{haq.}}$) hamda muvozanat konstantasi ($K_{\text{muv.}}$) Tolmachyov metodi yordamida aniqlandi (1-jadval). Bunda teng konsentratsiyali eritmalaridan foydalanildi (mol/l): $C_{\text{Fe}^{3+}} = C_{\text{HR}} = 5,371 \cdot 10^{-4}$ va $C_{\text{Cu}^{2+}} = C_{\text{HR}} = 3,147 \cdot 10^{-4}$.


1-jadval

Fe(III) va Cu(II) metalokomplekslarining spektrofotometrik tavsiflari

Kompleks- lar tarkibi	$\lambda_{\text{max}} = \text{nm}$			$\epsilon_{\text{haq.}}$ (MR)	$K_{\text{muv.}}$	$K_{\text{beq.}}$	$\beta_{\text{bar.}}$	$\lg \beta_{\text{bar}}$
	M:(HR)	(HR)	$\Delta\lambda$, nm					
Fe-(HR) ₃	590	525	65	52631	0,092	$1,15 \cdot 10^{-18}$	$8,71 \cdot 10^{17}$	17,94
Cu-(HR) ₂	600	500	100	14286	1,13	$3,847 \cdot 10^{-17}$	$2,59 \cdot 10^{16}$	16,41

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**4AGPASS ni temir(III) va mis(II) ionlari bilan kompleks hosil qilishining fizik-kimyoviy xossalari va selektivligi**” deb nomlangan. Gaussian 09 dasturida (5-rasm) kvant-kimyoviy hisoblashlar natijasida 4AGPASS reagent molekulasidagi atomlarning qisman zaryadlari taqsimlanishi aniqlandi. Hisoblash natijalari molekulada manfiy zaryadlarning asosan gidroksil kislorod atomlari va azo guruhidagi azot atomlari atrofida to'planishini ko'rsatdi. Ushbu atomlar koordinatsion faol markazlar bo'lib, ular Fe(III) va Cu(II) ionlari bilan kompleks hosil qilishda donor markazlar sifatida ishtirok etishi mumkin.

Kvant-kimyoviy hisoblashlar natijalari reagent molekulasining elektron tuzilishini va uning metall ionlari bilan kompleks hosil qilish qobiliyatini nazariy atomi orqali hosil bo'ladi hamda ion bog'lanish naftol halqasining gidroksil



5-rasm. Gaussian 09 dasturida 4AGPASS molekulasidagi atomlarda elektron zichliklarning taqsimlanishi

jihtadan asoslab beradi. Gaussian 09 dasturida 4AGPASS molekulasidagi yuqori band qilingan atomlarning effektiv zaryadlarini ko'rsatdi. Ushbu natijaga ko'ra, Fe(III) va Cu(II) komplekslarida donor-akseptor bog'lari asosan piridin halqasidagi azot atomi hamda piridin halqasiga yaqin joylashgan azo guruhidagi azot

guruhidagi kislorod atomi orqali amalga oshadi. Azobirikmalarning tuzilishini identifikatsiya qilish maqsadida reagent va uning Fe(III) hamda Cu(II) komplekslarining IQ-spektrlari olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, IQ spektral

ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida 4AGPASS ning sintez jarayonida modda tuzilishida sodir bo'lgan bosqichma-bosqich strukturaviy o'zgarishlar aniqlandi. Boshlang'ich modda bo'lgan 2-aminopiridinning spektrida 3441-3294 cm^{-1} oralig'ida kuzatilgan yutilish spektrlari birlamchi amin guruhiga xos bo'lgan $\nu(\text{N-H})$ cho'zilish tebranishlariga mos keladi. Bundan tashqari, 1624 cm^{-1} va 1593 cm^{-1} da qayd etilgan spektrlar piridin halqasiga xos bo'lgan $\nu(\text{C=N})$ tebranishlari hamda aromatik skeletning $\nu(\text{C=C})$ tebranishlariga tegishli bo'lib, geterosiklik aromatik tizim mavjudligini tasdiqlaydi (2-jadval).

Diazotlanish bosqichidan keyin olingan oraliq moddaning spektrida birlamchi amin guruhiga xos $\nu(\text{N-H})$ tebranish spektrlarining yo'qolishi amin guruhining diazoniyl guruhga aylanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga 1651 cm^{-1} atrofida paydo bo'lgan yangi yutilish spektri diazoniyl guruhining $\nu(\text{N=N}^+)$ cho'zilish tebranishiga mos keladi va 2-aminopiridin muvaffaqiyatli diazotlanganligini tasdiqlaydi.

2-jadval

Fe(III) va Cu(II) komplekslarining IQ-spektrlari


Funksional guruh	4AGPASS $\nu \text{ cm}^{-1}$	Cu(II)-HR kompleksi, $\nu \text{ cm}^{-1}$	Spektral o'zgarish xarakteri	Ilmiy xulosa
$\nu(\text{O-H})$ fenolik	3445	3398-3277 (keng, zaif)	pastga siljish, intensivlik kamayishi	fenolik -OH deprotonatsiyalanib Cu(II) bilan O orqali koordinatsiyalangan
$\nu(\text{N=N})$ azo	1651	1637-1555	siljish va intensivlik o'zgarishi	azo guruhdagi N atomlari Cu(II) bilan donor-akseptor o'zaro ta'sirga kirishgan
$\nu(\text{C=C})$ aromatik	1605	~1600	kichik siljish	aromatik π -tizimda elektron qayta taqsimlanishi
$\nu(\text{C=N})$ piridin	1566	1550-1540	pastga siljish	piridin azoti koordinatsiyada ishtirok etgan
aromatik -NH ₂ $\delta(\text{N-H})$	1512	~1510	sezilarli o'zgarish yo'q	-NH ₂ guruhi koordinatsiyada qatnashmaydi
$\nu_{\text{as}}(\text{SO}_3^-)$	1339	1335-1340	deyarli o'zgarmagan	sulfonat guruhlar koordinatsiyada ishtirok etmaydi
$\nu_{\text{s}}(\text{SO}_3^-)$	1165	1160-1168	o'zgarishsiz	natriyli sulfonat tuzi saqlangan
$\nu(\text{S-O})$	1061, 1022	~1060, ~1020	o'zgarishsiz	SO ₃ ⁻ guruhi strukturaviy rol o'ynaydi
$\gamma(\text{C-H})$ aromatik	810, 748	805-745	kichik siljish	aromatik skelet saqlangan
$\nu(\text{Cu-O}), \nu(\text{Cu-N})$	-	600-450	yangi signallar	Cu-O va Cu-N koordinatsion bog'lar hosil bo'lgan

Chikago kislotasining IQ spektrida 3460 cm^{-1} da keng yutilish spektri fenolik gidroksil guruhining $\nu(\text{O-H})$ cho'zilish tebranishiga tegishlidir. 1360-1340 cm^{-1} oralig'ida kuzatilgan kuchli spektrlar sulfonat guruhining assimetrik cho'zilish tebranishlariga $\nu_{\text{as}}(\text{SO}_3^-)$, 1240-1200 cm^{-1} sohadagi spektrlar esa sulfonat guruhining simmetrik cho'zilish tebranishlariga $\nu_{\text{s}}(\text{SO}_3^-)$ mos keladi. Ushbu spektral xususiyatlar disulfonlangan aromatik tizim mavjudligini tasdiqlaydi.

Tekshirilayotgan 4AGPASS reagenti bilan Fe(III) va Cu(II) ionlari hosil qilgan kompleks birikmalarini IQ-spektroskopik tahlil natijalari 2-jadvalda keltirildi.

Sintez qilingan 4AGPASS azo reaktivining IQ spektrida 1651 cm^{-1} da kuzatilgan intensiv yutilish spektri azo bog'ining $\nu(\text{N}=\text{N})$ cho'zilish tebranishiga tegishli bo'lib, bu azo qo'shilish reaksiyasi natijasida yangi kon'yugatsiyalangan azo tizim hosil bo'lganligini ko'rsatadi. 3445 cm^{-1} da qayd etilgan keng spektrlar fenolik gidroksil guruhining $\nu(\text{O}-\text{H})$ tebranishiga mos keladi. 1338 cm^{-1} da kuzatilgan yutilish spektri sulfonat guruhining assimetrik cho'zilish tebranishiga $\nu_{\text{as}}(\text{SO}_3^-)$, 1165 cm^{-1} dagi spektrlar esa sulfonat guruhining simmetrik cho'zilish tebranishlariga $\nu_{\text{s}}(\text{SO}_3^-)$ tegishlidir. Ushbu spektrlar sulfonat funksional guruhlarning saqlanib qolganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, IQ spektral tahlil natijalari amin funksional guruhining diazoniyl guruhga aylanishi hamda keyingi azo qo'shilish reaksiyasi natijasida kon'yugatsiyalangan azo tizim hosil bo'lganligini aniq tasdiqlaydi. Bundan tashqari, fenolik gidroksil va sulfonat funksional guruhlarning spektrda saqlanib qolishi yangi sintez qilingan 4AGPASS birikmasining taklif etilgan molekulyar tuzilishi bilan to'liq mos keladi. Qolgan funksional guruhlarning barcha komplekslarning IQ-spektrlari uchun deyarli bir xil bo'lib qoldi. IQ-spektroskopik tahlil natijalari, komponentlarning molyar nisbatlari hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: $2[\text{HR}]^{2-} + \text{M}^{n+} \rightarrow [\text{MR}_2]^{2-} + 2\text{H}^+$.



4AGPASS reagenti yordamida temir(III) va mis(II) ionlari hosil qilgan komplekslarning analitik qo'llanishida metall ionlari miqdorini aniqlash uchun spektrofotometrik usulda o'lchanadigan "Y" kattalik, ya'ni optik zichlik "A" ning aniqlanayotgan modda miqdori "Xi" ga bog'liqlik grafigidan foydalanildi.

To'g'ri chiziq tenglamasi Fe(III) uchun $Y_i = 0,0180 + 0,0053 \cdot X_i$ va Cu(II) uchun $Y_i = 0,0159 + 0,0452 \cdot X_i$ ga teng bo'ldi.

Reagentning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan uning analitik qo'llanish imkoniyati hamda metodning tanlab ta'sir etuvchanligini aniqlash maqsadida begona ionlarning Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashga ta'siri o'rganildi. Aniqlash jarayoni umumiy metodika asosida optimal sharoitlarda olib borildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari azo tipidagi 4AGPASS reagent yordamida Fe^{3+} va Cu^{2+} ionlarini spektrofotometrik aniqlashning selektivligini baholash imkonini berdi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, Fe^{3+} ionlarini aniqlash uchun optimal sharoit $\text{pH}=5,0$ bo'lgan atsetat bufer muhitida hosil qilindi. Bu sharoitda Fe^{3+} ionlari gidrolizlanmasdan barqaror holatda saqlanadi va azo reagent bilan intensiv rangli xelat kompleks hosil qiladi ($\lambda_{\text{max}} = 590\text{ nm}$). Tadqiqot natijalariga ko'ra Na^+ , K^+ , (1:1000), NH_4^+ (1:500), Mg^{2+} , Ca^{2+} , Al^{3+} , Ba^{2+} , Sr^{2+} , Co^{3+} (1:100); Cd^{2+} (1:40); nisbatlari va anionlarning NO_2^- , Cl^- , Br^- , SO_4^{2-} , NO_3^- , ClO_4^- , (1:100) nisbatlari xalaqit bermaydi. Kationlarning Cr^{3+} , Th^{4+} , Pb^{2+} (1:30), Tl^{3+} , Sn^{2+} , Sb^{3+} , Ce^{3+} (1:20), Zn^{2+} , Hg^{2+} , Mn^{2+} (1:10), Ni^{2+} , Cu^{2+} , Co^{2+} (1:5) nisbatlari va

anionlarning EDTA^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ (1:5); $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$, PO_4^{3-} , F^- (1:0,5) nisbatlari xalaqit beradi.

Ushbu ionlarning ta'sirini kamaytirish uchun $\text{Ni}^{2+}:\text{CN}^- = 1:6$, $\text{Co}^{2+}:\text{CN}^- = 1:6$, $\text{Cu}^{2+}:\text{NH}_3 = 1:4$ ionlari bilan niqoblendi. Natijada xalaqit beruvchi ionlar eritmada barqaror kompleks shakliga o'tib, azo reagent bilan reaksiyaga kirishmaydi.

Cu^{2+} ionlarini spektrofotometrik aniqlash esa $\text{pH} = 2,34$ bo'lgan universal bufer muhitida amalga oshiriladi. Ushbu kislotali muhitda Cu^{2+} ionlari azo reagent bilan barqaror rangli kompleks hosil qiladi va kompleks ko'rinadigan spektr sohasida intensiv yutilish maksimumi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Na^+ , K^+ , (1:1000), Mg^{2+} , Ca^{2+} , Al^{3+} , Ba^{2+} , Sr^{2+} , Co^{3+} (1:100), Th^{4+} , Cd^{2+} , Zn^{2+} (1:40), Hg^{2+} , Sn^{2+} (1:20), nisbatlari va anionlarning F^- , NO_2^- , Cl^- , Br^- , CN^- , SO_4^{2-} , PO_4^{3-} (1:100) nisbatlari xalaqit bermaydi. Kationlarning Cr^{3+} (1:30), Fe^{2+} , Pb^{2+} , Ce^{3+} (1:20), Mn^{2+} , Sb^{3+} , Tl^{3+} (1:10); Ni^{2+} , Fe^{3+} , Co^{2+} (1:3), nisbatlari va anionlarning $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ (1:10), EDTA^{2-} , $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ (1:0,5) nisbatlari xalaqit beradi. Shu sababli ular kuchli kompleks hosil qiluvchi reagentlar yordamida niqoblendi: Fe^{3+} ionlari F^- bilan (1:6), Co^{2+} ionlari H_2O_2 bilan (1:2), Ni^{2+} ionlari CN^- bilan (1:6) xalaqit berishi aniqlandi va niqoblendi.

Shunday qilib, xalaqit beruvchi ionlarni mos kompleks hosil qiluvchi reagentlar yordamida niqoblash hamda eritma muhitining optimal pH qiymatini tanlash orqali Fe^{3+} va Cu^{2+} ionlarini azo reagent yordamida yuqori selektivlik va aniqlik bilan spektrofotometrik aniqlash imkoniyati yaratildi.

Dissertatsiyaning **“Fe(III) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan usullarni amaliy qo'llash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Fe(III) va Cu(II) ionlarini 4AGPASS eritmasi bilan spektrofotometrik aniqlash masalasi yoritilgan. Ishlab chiqilgan spektrofotometrik metodikalar va olingan tajriba natijalari jahon adabiyotlarida ma'lum bo'lgan matematik statistikaning amaldagi qoidalari va usullari asosida qayta ishlangan.

Ishlab chiqilgan metodikani sun'iy aralashmalar, tabiiy va sanoat obyektlari (tabiiy suvlar, qotishmalar, minerallar, rudalar) hamda boshqa real tabiiy obyektlar oziq-oqat mahsulotlari, qon, jigar va sanoat materiallari analizida qo'llash mumkin.

Fe(III) va Cu(II) ionlarini 4AGPASS bilan ishlab chiqilgan metodika yuqorida keltirilgan metodika asosida niqoblovchi moddalar: Fe(III) ionlari uchun niqoblashda: $\text{Ni}^{2+}:\text{CN}^- = 1:6$, $\text{Co}^{2+}:\text{CN}^- = 1:6$, $\text{Cu}^{2+}:\text{NH}_3 = 1:4$ nisbatlarda kompleks hosil qilish orqali; Cu(II) ionlari uchun Fe^{3+} ionlari F^- bilan (1:6), Co^{2+} ionlari H_2O_2 bilan (1:2), Ni^{2+} ionlari CN^- (1:6) xalaqit berishi aniqlandi va niqoblendi.

Olingan amaliy natijalar Fe(III) va Cu(II) ionlarini tabiati va miqdori turlicha bo'lgan, alohida holda uchraganda xalaqit bermaydigan hamda birga uchraydigan metall ionlari ishtirokida tabiiy obyektlar va sanoat materiallari tarkibida, shuningdek xalaqit beruvchi ionlar mavjud sharoitda aniqlash imkoniyatini yaratdi. Murakkab sun'iy aralashmalarni tayyorlashda Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashga xalaqit beruvchi ionlar asos qilib olindi. Olingan natijalarga ko'ra, Fe(III) va Cu(II) ionlarini real obyektlar tarkibiga mos bo'lgan sun'iy aralashmalar tarkibidan spektrofotometrik usulda aniqlash mumkinligi isbotlandi. Ishlab chiqilgan metodikada nisbiy standart chetlanish (Sr) qiymati Fe(III) uchun 0,0053 va Cu(II) uchun 0,0117 dan oshmasligi metodikaning ishonchliligi va to'g'riligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan temir(III) va mis(II) ionlarini (4AGPASS) bilan sezgir va tanlab ta'sir etuvchan aniqlash metodi sanoat qotishmalarining standart namunalari

(A 203-1, A 203-5, M115-1, va M 123-1) analiziga qo‘llanildi. Olingan natijalar va ularning matematik qayta ishlash hisoblashlari 3-jadvalda keltirilgan.

Alyuminiy va mis asosidagi standart sanoat namunalarining analizi natijalari (3-jadval) dan ko‘rinib turibdiki, Fe(III) va Cu(II) ionlarini 4AGPASS azoreagenti bilan spektrofotometrik aniqlash metodi, o‘zining quyi aniqlanish chegarasi, yuqori sezgirliigi, tanlab ta’sir etuvchanligi va Sr qiymati 0,045 dan oshmaganligi bilan ijobiy tavsiflanadi.

3-jadval

Fe(III) va Cu(II) ionlarini standart sanoat qotishmalari tarkibidan spektrofotometrik aniqlash natijalari

Namun. nomi., Me, %	V _{nam} , sm ³	Alikvot M ⁿ⁺ miqdori, mkg	\bar{A}	Topildi M ⁿ⁺ , mkg, $\bar{X} \pm \Delta X$	S	S _r
<i>Fe(III) ionini aniqlash (V_{HR}=1,0 sm³; λ_{max}=590 nm; pH=5,0; n=3; P=0,95; t_{pk}=4,303)</i>						
M115-1 (N9, NX98)	1,0	5,0	0,045	5,09±0,46	0,185	0,036
	2,0	10,0	0,072	10,13±0,27	0,109	0,010
	3,0	15,0	0,098	15,03±0,30	0,103	0,0069
AK12MK 203-5	2,2	5,28	0,046	5,28±0,47	0,19	0,035
	6,0	14,4	0,095	14,45±0,30	0,103	0,0072
	10,0	24,0	0,146	24,09±0,10	0,044	0,002
<i>Cu(II) ionini aniqlash (V_{HR}=1,2 sm³; λ_{max}=600 nm; pH=2,30; n=3; t_{pk}=4,303)</i>						
AK12MK 203-1	1	3,30	0,165	3,29±0,05	0,021	0,006
	1,5	4,95	0,240	4,96±0,02	0,101	0,0013
	1,8	5,94	0,284	5,93±0,20	0,0815	0,0137
AK12MK 203-5	2,0	3,0	0,151	2,98±0,06	0,023	0,008
	3,0	4,5	0,217	4,45±0,05	0,020	0,004
	3,5	5,25	0,254	5,26±0,22	0,090	0,017
M 123-1	0,2	1,64	0,090	1,65±0,16	0,065	0,039
	0,4	3,28	0,165	3,30±0,12	0,047	0,014
	0,6	4,92	0,239	4,93±0,25	0,100	0,020

Fe(III) va Cu(II) ionlarini individual va murakkab aralashmalar hamda real obyektlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri spektrofotometrik aniqlashning sharoitlarini optimallashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida Toshkent viloyati Parkent tumanining Chotqol tog‘ tizmasida joylashgan tabiiy buloq suvi tarkibidan Fe(III) va Cu(II) ni aniqlandi.

Namunalarni analiz qilish uslubi: Toshkent viloyatida Chotqol tog‘ tizmasida joylashgan tabiiy buloqlaridan olingan hajmi 1,0 dm³ bo‘lgan namunani 1000 sm³ li issiqqa chidamli stakanga solindi, ustiga 10-12 sm³ 1,0 n li HNO₃ eritmasi solib, aralashmani qum hammomida qizdirildi, eritmani nam tuz holigacha bug‘latildi. Cho‘kmani 10 sm³ bidistillangan suvda eritildi va 100 sm³ li stakanga filtrlab olinadi.

So‘ngra eritmani 25,0 sm³ li o‘lchov kolbalariga miqdoran o‘tkazildi, ustiga 5,0-10,0 mkg miqdordagi temir(III) eritmalari, 1,0-2,0 mkg miqdordagi mis(II) eritmalari, uslublarning tanlab ta’sir etuvchanligini yaxshilash maqsadida foydalanildi. Masalan, niqoblashda: Ni²⁺:CN⁻=1:6, Co²⁺:CN⁻=1:6, Cu²⁺:NH₃=1:4 nisbatlarda kompleks hosil qilish orqali; Cu(II) ionlari uchun Fe³⁺ ionlari F⁻ bilan (1:6), Co²⁺ ionlari H₂O₂ bilan (1:2), Ni²⁺ ionlari CN⁻ (1:6) xalaqit berishi aniqlandi

va niqoblanadi. Mis va temir ionlarini aniqlashda begona ionlarni bog'lovchi agentlari solindi, 5,0 sm³ atsetatli bufer va universal bufer aralashmasi va 1,0 sm³ hamda 1,20 sm³ 1,081·10⁻³ M 4AGPASS eritmasi solinib, idishning chizig'igacha bidistillangan suv bilan to'ldirildi va aralashtirildi. Eritmalarning OZ ni KFK-3 bilan λ=590 nm va λ=600 nm da, qalinligi ℓ=3,0 sm bo'lgan kyuvetada solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Natijalar 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval

Tabiiy buloq suvidan Fe(III) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash natijalari (V_{suv} = 1,0 dm³)

№	Kiritilgan M ⁿ⁺ , miqdori, mkg	Olingan nam. alikvot, M ⁿ⁺ miqdori, mkg	\bar{A}	Topilgan M ⁿ⁺ miqdori, mkg, $\bar{X} \pm \Delta X$	Na'munada topilgan M ⁿ⁺ miqdori, mkg	S	S _r
